

ADVOKATLIK FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ AYRIM XORIJIY

MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Matkarimov Quдрat Qalandarovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Sud hokimiyati, advokatura va huquqni muhofaza
qiluvchi organlar sho'basi dotsenti,
yuridik fanlar doktori (DSc)
E-mail: matkarimovkudrat79@gmail.com

Досекеев Олжас Бекболды улы
Ходжи Ахмеда Ясави номидagi
Halqaro Qozoq-Turk universiteti
Yurisprudensiya kafedراسи dotsenti

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada ayrim xorijiy mamlakatlarda advokatlik faoliyatini raqamlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq ayrim jihatlarга e'tibor qaratilgan. Shuningdek, advokatlik faoliyatini raqamlashtirishning samarali jixatlari, advokatlik faoliyatini raqamlashtirishning ahamiyati, mamlakatimizda advokatlik tuzilmalar yani byurolar, advokatlik firmalari, advokatlar hay'atlari va yuridik maslahatxonalar faoliyatini raqamlashtirish bilan bog'liq masalalar haqida fikr mulohazalar yuritgan.

Kalit so'zlar: advokatlik tuzilmalari, advokatlik byurolari, advokatlik firmalari, advokatlar hay'atlari va yuridik maslahatxonalar.

**ОПЫТ НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В ОБЛАСТИ ЦИФРОВИЗАЦИИ АДВОКАТСКОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.**

Matkarimov Kudrat Kalandarovich,
Tashkentский государственный юридический университет,
доцент кафедры судебной власти, адвокатуры и правоохранительных органов,
доктор юридических наук (DSc)»
E-mail: matkarimovkudrat79@gmail.com

Досекеев Олжас Бекболдыулы
Международного казахско-турецкого
университета имени Ходжи Ахмеда Ясави:
доцент кафедры «Юриспруденция»

АННОТАЦИЯ:

В данной статье уделено внимание отдельным аспектам, связанным со специфическими особенностями цифровизации адвокатской деятельности в некоторых зарубежных странах. Также рассматриваются эффективные стороны и значение цифровизации адвокатской практики, а также высказываются мнения по вопросам, связанным с цифровизацией

деятельности адвокатских структур в нашей стране, таких как адвокатские бюро, юридические фирмы, коллегии адвокатов и юридические консультации.

Ключевые слова: адвокатские формирования, юридические бюро, юридические фирмы, коллегии адвокатов и юридические консультации.

SOME FOREIGN COUNTRIES' EXPERIENCE RELATED TO THE DIGITALIZATION OF ADVOCACY ACTIVITIES

Matkarimov Kudrat Kalandarovich,
Tashkent State University of Law,
Associate Professor of the Department of
Judiciary, Advocacy and Law Enforcement Bodies,
Doctor of Legal Sciences (DSc)
E-mail: matkarimovkudrat79@gmail.com

Досекеев Олжас Бекболдыулы
Khoja Akhmet Yassawi International Kazakh-Turkish University:
Associate Professor of the Department of Jurisprudence”

ABSTRACT:

This article focuses on certain aspects related to the specific features of the digitalization of legal (advocacy) activities in some foreign countries. It also discusses the effective aspects and significance of digitalizing legal practice, as well as provides reflections on issues related to the digitalization of legal structures in our country, such as law bureaus, law firms, bar associations, and legal consultation offices

Keywords: Advocacy groups, law bureaus, law firms, bar associations and legal consultations.

Globalashuv jarayonlari, sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda pandemiya ta'sirida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar zamonaviy jamiyatda yuridik xizmatlar ko'lamining kengayishi va sifatiga bo'lgan talabni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining barcha sohalarga, jumladan, huquq tizimiga ham chuqur kirib kelishi natijasida advokatlik faoliyatini raqamlashtirish dolzarb va strategik ahamiyatga ega yo'nalishlardan biriga aylandi. Endilikda advokat faqatgina klassik huquqiy bilimlarga ega bo'lishi emas, balki zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmalariga ham ega bo'lishi zarurati kun tartibiga chiqmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yuridik ta'lim tizimida ham yangi o'zgarishlarni talab etmoqda. Chunki raqamlashtirish jarayonlarini chuqur tushunadigan, texnologiyalar bilan ishlash malakasiga ega mutaxassislarini tayyorlash zarurati tobora ortmoqda.

Zamonaviy huquqiy xizmatlar bozorida raqobatbardoshlik nafaqat professional bilim va tajriba bilan, balki raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyati bilan ham belgilanmoqda. Mazkur bo'limda xorijiy mamlakatlarning advokatlik faoliyatini raqamlashtirish yo'lidagi amaliy tajribalari, ularning ustun va zaif tomonlari, qo'llanilgan yondashuvlar, qonunchilik mexanizmlari va texnologik innovatsiyalari tahlil qilinadi. Ayniqsa, yuridik xizmatlar global xarakter kasb eta boshlagan hozirgi davrda, milliy huquqiy tizimlarni zamonaviylashtirish xalqaro hamkorlik darajasini oshirish bilan ham

chambarchas bog'liqdir. Shu bois, raqamlashtirish faqat texnik rivojlanish emas, balki yuridik tizimlarning xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash vositasi sifatida ham ko'rilmogda.

Raqamlashtirish deganda faqat texnik vositalarni joriy etish tushunilmaydi. Bu, eng avvalo, advokatlik faoliyatining mazmun-mohiyatini yangilash, yuridik xizmatlar samaradorligini oshirish, ularning ochiqligini ta'minlash, shuningdek, aholining huquqiy yordamga erkin va tezkor kirish imkoniyatini kengaytirish imkonini beruvchi chuqur tizimli islohotdir. Bunda raqamlashtirishning asosiy mezonlaridan biri sifatida inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirish, hujjat aylanishi jarayonini tezlashtirish va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish kabilarni sanab o'tish mumkin. AQSH Advokatlar assotsiatsiyasi ta'rifiga ko'ra, yuridik xizmatlarni raqamlashtirish advokatlik kasbining an'anaviy amaliyotlarini zamonaviy texnologik yechimlar bilan uyg'unlashtirish orqali insonlarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash jarayonidir. Raqamli platformalar, elektron hujjatlar aylanishi, masofaviy maslahatlashuvlar, elektron imzo, blokcheyn va sun'iy intellekt asosida ishlovchi tahlil vositalari hozirda yuridik xizmat ko'rsatishning ajralmas qismlariga aylanmogda.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmogdaki, raqamlashtirish jarayoni har bir mamlakatda o'ziga xos yondashuv asosida olib boriladi. Har bir davlat o'zining iqtisodiy rivojlanish darajasi, huquqiy tizimi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining holati, madaniy qadriyatlari hamda ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, raqamli yondashuvni ishlab chiqadi va tatbiq etadi. Masalan, iqtisodiyoti yuqori rivojlangan davlatlarda raqamlashtirish jarayonlari tez sur'atlar bilan kechayotgan bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlarda bu jarayon bosqichma-bosqich, ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilmogda. Shuningdek, ayrim mamlakatlarda inson resurslari va IT infratuzilmasi yetarli bo'lmagani sababli, raqamli transformatsiya dastlab asosiy xizmat ko'rsatish sohaslaridan boshlanib, bosqichma-bosqich yuridik sohalarga kengaytirilmogda.

Biroq, mamlakatlar o'rtasidagi bu turlicha yondashuvlarga qaramay, umumiy global tendensiyalar mavjud bo'lib, ularning aksariyati aynan yuridik xizmatlar sohasida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga olib kelmogda. Xususan, yuridik xizmatlarning avtomatlashtirilishi, sun'iy intellekt va algoritmlardan foydalanish orqali ko'plab oddiy va takrorlanuvchi jarayonlar, masalan, hujjatlarni standart shaklda tayyorlash, onlayn murojaatlarni ko'rib chiqish, shartnomalarni dasturiy vositalar orqali avtomatik tekshirish, inson ishtirokisiz yoki minimal aralashuvi bilan amalga oshirilmogda.

Bu bir tomondan, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklar, subyektiv yondashuvlar va korrupsiya xavfini kamaytiradi. Ikkinchi tomondan esa, xizmat ko'rsatish tezligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi va natijada yuridik xizmatlarning narxi pasayib, aholining keng qatlamlari uchun ularni ommaviy va qulay bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi kichik va o'rta korxonalar, chekka hududlarda yashovchilar uchun bu juda muhim. Shuningdek, raqamlashtirish jarayoni nafaqat xizmat ko'rsatish formatini, balki advokatlik, notarial va sud tizimining o'zini ham tubdan o'zgartirmogda. Masalan, virtual maslahat berish platformalari, elektron sudlar, onlayn huquqiy portallar orqali huquqiy yordam olish imkoniyati kengaymogda. Bularning barchasi nafaqat yuridik xizmatlardan foydalanishni yengillashtiradi, balki fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishga, qonun ustuvorligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Huquqiy sohada ilg'or tajribaga ega davlatlar – AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Singapur kabi davlatlar ushbu yo'nalishda katta natijalarga erishgan. Ushbu davlatlar tomonidan amalga oshirilgan raqamli transformatsiya nafaqat texnologik yechimlarni, balki zarur qonunchilik asoslarining takomillashtirilishini, huquqiy xizmatlar standartlarining qayta ko'rib chiqilishini, raqamli savodxonlik

bo'yicha maxsus ta'lim dasturlarining joriy etilishini ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ishonch bildiruvchi shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash va kasb etikasi qoidalariga rioya qilish ham raqamlashtirish jarayonining ajralmas tarkibiy qismlaridandir.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi global miqyosda barcha sohalarda tub o'zgarishlarga sabab bo'layotgani hech kimga sir emas. Xususan, yuridik xizmatlar sohasi ham bu jarayondan chetda qolmayapti. Raqamlashtirish yuridik faoliyatda an'anaviy yondashuvlar o'rnini innovatsion texnologiyalar egallashiga, xizmat ko'rsatish shakllari va uslublarning sezilarli darajada o'zgarishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, ilg'or texnologik salohiyatga ega bo'lgan yetakchi davlatlar, jumladan, AQSHda advokatlik faoliyatining raqamlashtirilishi keng ko'lamli islohotlar, aniq strategiyalar va ilg'or texnologiyalar asosida amalga oshirilmogda. Masalan, yuridik texnologiyalar bozori yildan-yilga kengayib, huquqiy xizmatlar sohasida sun'iy intellekt, huquqiy tahlil texnologiyalari va hujjatlarni avtomatik tayyorlash tizimlari kabi vositalar keng qo'llanilmoqda. Bu borada muhim hujjatlardan biri sifatida AQSh Advokatlar assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "2025-yilgi Yuridik soha hisoboti" (The Legal Industry Report 2025)¹ e'tiborga loyiqdir. Hisobotda qayd etilishicha, so'nggi yillarda huquqiy xizmatlar ko'rsatish tizimi sezilarli darajada raqamlashtirilmogda. Bunda asosiy e'tibor zamonaviy raqamli vositalar orqali yuridik xizmatlarning sifatini oshirish, aholiga tezkor va ishonchli yuridik yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yish hamda huquqiy jarayonlarning shaffofligini ta'minlashga qaratilmogda.

Bu maqsadlarga erishishda sun'iy intellekt (Artificial Intelligence) va mashinaviy o'rganish (Machine Learning) texnologiyalarining integratsiyasi hal qiluvchi o'rin tutmogda. Aynan ushbu texnologiyalar orqali yuridik faoliyatning turli bosqichlari, jumladan, shartnomalar tahlili, sud hujjatlarini tartibga solish, yuridik izlanishlar olib borish, xavf omillarini aniqlash va huquqiy qarorlar qabul qilishda ehtimoliy harakatlarni taxmin qilish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymogda.

2023-yildagi "Yuridik sun'iy intellekt indeksi" (Legal AI Index) ma'lumotlariga ko'ra, AQSHdagi yirik yuridik firmalarning 76 foizi sun'iy intellekt texnologiyalaridan faol foydalanmogda. Taqqoslash uchun, 2019-yilda bu ko'rsatkich atigi 23 foizni tashkil etgan.² Ushbu o'sish sur'ati, birinchidan, texnologik yechimlarning foydalanuvchi uchun qulayligi, ikkinchidan esa, ularning iqtisodiy va operatsion afzalliklari bilan izohlanadi. Misol uchun, sun'iy intellekt asosidagi hujjat tahlil tizimlari (masalan, RAVN Systems) sud arxivlarini avtomatik tahlil qilish, yuridik hujjatlarni tartibga solish va dolzarb ma'lumotlarni tezkor topish imkonini beradi. Bu esa advokatlar va yuristlarning vaqtini tejab, murakkab tahlil ishlari uchun ko'proq imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, AQSHda fuqarolar bilan muloqotni avtomatlashtirish, masalan, chatbotlar orqali dastlabki maslahatlar berish, hujjatlar tayyorlash bo'yicha interaktiv xizmatlar ko'rsatish tajribasi keng yo'lga qo'yilgan. Masalan, huquqiy yordam ko'rsatishga mo'ljallangan sun'iy intellekt platformasi oddiy fuqarolarga jarimalarga e'tiroz bildirish, iste'molchi huquqlarini himoya qilish va boshqa yuridik muammolarni advokatsiz hal qilish imkonini yaratmogda. Bu holat huquqiy xizmatlarga bo'lgan kirishuvchanlik darajasini kengaytiradi va fuqarolarning yuridik savodxonligini oshiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, AQSHda raqamli yuridik tizimlar nafaqat professional advokatlar uchun, balki sudyalalar, prokurorlar va boshqa huquq tizimi vakillari uchun ham muhim ish quroliga

¹ The Legal Industry Report 2025 https://www.americanbar.org/groups/law_practice/resources/law-technology-today/2025/the-legal-industry-report-2025/

² AI use skyrocketing at North American law firms <https://nationalmagazine.ca/en-ca/articles/legal-market/legal-tech/2024/ai-use-skyrocketing-at-north-american-law-firms>

aylangan. Masalan, sud amaliyotini tahlil qiluvchi analitik platformalar (CaseText, Lex Machina) orqali oldingi sud qarorlariga asoslanib huquqiy pozitsiyalarni belgilash va strategik qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratilgan.

Umuman olganda, AQSh tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni yuridik sohada joriy etish, birinchidan, xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi, ikkinchidan esa, xarajatlarni kamaytirib, fuqarolar uchun qulay, tezkor va ishonchli yuridik muhitni shakllantiradi. Bu esa raqamlashtirishning faqat texnologik emas, balki ijtimoiy va institutsional ahamiyatga ega ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

Shuningdek, elektron hujjat aylanishi (file management), bulutli texnologiyalar (cloud-based tools) va masofaviy hamkorlik imkoniyatlari orqali yuridik xizmatlar aholining yanada keng qatlamiga tez va qulay shaklda yetkazilmoqda. Shu bilan birga, AQShda yuridik axborotni himoya qilish va kiberxavfsizlik standartlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, yuridik firmalar uchun xavfsizlik bo'yicha batafsil qo'llanmalar ishlab chiqilgan va yangilanib boriladi.

Dunyoning yirik iqtisodiyoti va huquq tizimi kuchli bo'lgan davlatlaridan biri bo'lgan Germaniya ham ushbu sohada ilg'or strategik yondashuvga ega. Germaniyada raqamlashtirish asosan an'anaviy yuridik xizmatlarni raqamli shaklga o'tkazish va huquqiy jarayonlarni avtomatlashtirishga qaratilgan. "Flightright" va "Wenigerrecht" kabi platformalar orqali oddiy fuqarolar, masalan, parvoz kechikishiga doir da'volarni sun'iy intellekt yordamida avtomatik tarzda yuborish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Bundan tashqari, "Smartlaw" platformasi orqali turli shartnomalarni avtomatik tarzda yaratish imkoniyati mavjud. Germaniya hukumati tomonidan qabul qilingan "Raqamli boshqaruv 2020" (Digitale Verwaltung 2020) dasturi doirasida elektron raqamli imzo (digital signature), raqamli identifikatsiya (digital identity) va yuridik xizmatlarning raqamli shakli yo'lga qo'yilgan.³ Bularning barchasi Yevropa Ittifoqining umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (General Data Protection Regulation – GDPR) talablariga mos tarzda amalga oshirilmoqda. Shu tarzda AQSh va Germaniya tajribalari yuridik sohadagi raqamlashtirishda strategik yondashuv, xavfsizlik, texnologik innovatsiyalar va huquqiy infratuzilmaning muvofiqligini ta'minlash muhimligini ko'rsatadi.

Singapur hukumati tomonidan 2022-yilda ishga tushirilgan "Yuridik texnologiyalar platformasi tashabbusi" (Legal Technology Platform Initiative) kichik va o'rta yuridik firmalarga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda yordam ko'rsatishga qaratilgan.⁴ Ushbu tashabbus Singapur Adliya vazirligi tomonidan ilgari surilgan bo'lib, yuridik xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, "Huquqiy tarmoq" (LawNet) platformasi orqali barcha qonun hujjatlari, sud qarorlari va yuridik ma'lumotnomalar elektron shaklda taqdim etiladi. Bu yuristlar uchun izlanish jarayonini tezlashtiradi va optimallashtiradi. Bundan tashqari, "e-Sud jarayoni" (eLitigation) tizimi orqali sud hujjatlarini onlayn yuborish va sud majlislarini masofadan turib kuzatish imkoniyatlari mavjud. Singapur hukumati "Aqlli Millat" (Smart Nation) tashabbusi doirasida yuridik xizmatlarni to'liq raqamlashtirishni maqsad qilgan. "Mening ma'lumotim" (MyInfo) tizimi orqali fuqarolar o'z shaxsiy ma'lumotlarini yuridik tashkilotlar bilan xavfsiz tarzda ulasha oladi. Bundan tashqari, "Onlayn nizolarni

³ Digital Administration 2020 - Summary Government programme of the 18th legislative term

<https://www.bmi.bund.de/SharedDocs/downloads/EN/themen/moderne-verwaltung/government-programme-digital-administration-2020>

⁴ Singapore Ministry of Law launches the Legal Technology Platform Initiative <https://iclr.net/news/singaporean-ministry-of-law-launches-the-legal-technology-platform-initiative>

hal qilish" (Online Dispute Resolution – ODR) tizimi orqali kichik da'volarni sudgacha bo'lgan bosqichda onlayn tarzda hal qilish imkoniyati yaratilgan.⁵

Ozarbayjon Respublikasida ham advokatlik faoliyatini raqamlashtirish yo'nalishida muhim qadamlar qo'yilmoqda. 2025-yil 29–30-may kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Tashkent Law Spring" xalqaro yuridik forumida Ozarbayjon Respublikasi Advokatlar kollegiyasi raisi Anar Ramiz o'g'li Baghirov o'z nutqida Ozarbayjonda advokatlik faoliyatini raqamlashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berdi. Unga ko'ra, 2024-yildan boshlab mamlakatda advokatura tizimini zamonaviylashtirish maqsadida raqamlashtirish jarayonlari boshlangan. Xususan, "e-Vakil" deb nomlangan elektron ilova ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan. Bu raqamli platforma orqali advokatlar o'z faoliyatini qulay muhitda olib borish imkoniga ega bo'lmoqda. Ya'ni, ular elektron shaklda shartnomalar tuzishlari, yuritayotgan ish jarayonlarini onlayn kuzatishlari, turli kasbiy ta'lim dasturlarida ishtirok etishlari mumkin bo'lmoqda. Bu esa advokatlarning ishini yengillashtirib, zamon talablari asosida samarali faoliyat yuritishlariga imkon yaratmoqda.

Bundan tashqari, Ozarbayjon Advokatlar kollegiyasi tuzilmasida "Elektron advokatlik" va "Kiberxavfsizlik" kabi maxsus qo'mitalar tashkil etilgan.⁶ Ushbu qo'mitalarda advokatlar bilan bir qatorda axborot texnologiyalari sohasi mutaxassislari ham faoliyat yuritadi. Ular qonunchilikni chuqur tahlil qilib, raqamlashtirish jarayonlariga moslashtirish, huquqiy normalarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Anar Baghirovning fikricha, raqamlashtirish orqali nafaqat advokatlar faoliyatida qulaylik yaratilmoqda, balki yuridik xizmatlar ko'rsatishda shaffoflik va ochiqlik ta'minlanmoqda. Bu esa advokatura tizimining ishonchligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Boshqa so'z bilan aytganda, AQSh, Germaniya va Singapur va O tajribalari shuni ko'rsatadiki, yuridik xizmatlarni raqamlashtirish faqat texnologiyani joriy qilish emas, balki huquqiy tizimni butunlay yangilash, samaradorlikni oshirish, fuqarolarning yuridik xizmatlarga teng va qulay kirishini ta'minlash yo'lida muhim bosqichdir. Har uchala davlatda ham bu jarayon huquqiy, texnologik va boshqaruv darajasida sinchiklab rejalashtirilgan va doimiy takomillashtirib borilmoqda.

O'zbekiston ham davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi va yuridik xizmatlar sohasida raqamlashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Biroq, advokatlik faoliyatining raqamli transformatsiyasini chuqurroq va tizimliroq yo'lga qo'yish uchun xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, ularning samarador tomonlarini tahlil qilish va mahalliy huquqiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy sharoitlarga moslashtirish muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham, turli mamlakatlar tajribasini solishtirish orqali advokatlik xizmatlarida qanday texnologiyalar joriy etilganini, qanday huquqiy asoslar yaratilganini va bu yechimlarning amaliy natijalarini aniqlash O'zbekiston uchun beqiyos ahamiyatga ega bo'ladi.

Tahlil qilingan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, advokatlik faoliyatini raqamlashtirish bir necha asosiy yo'nalishlar bo'yicha rivojlanmoqda. Birinchidan, sun'iy intellekt va mashinani o'rganish texnologiyalari yuridik jarayonlarni avtomatlashtirish va samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Sun'iy intellekt, blokcheyn yoki ish oqimini avtomatlashtirish kabi texnologiyalar yuridik tizimni transformatsiya qilishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

⁵ https://www.boomportaal.nl/tijdschrift/IJODR/catalogus?y=2018&o=last_issue

⁶ "Huquq va Burch" ijtimoiy-huquqiy, ilmiy jurnali №5/2025. 15 b.

Ikkinchidan, fuqarolar bilan masofaviy muloqot va onlayn xizmat ko'rsatish imkoniyatlari barcha mamlakatlar uchun muhim yo'nalish bo'lib qolmoqda. COVID-19 pandemiyasi bu jarayonni yanada tezlashtirgan va raqamli platformalar orqali yuridik xizmat ko'rsatish zaruratini oshirgan.

Uchinchidan, ma'lumotlar xavfsizligi va kiberhavfsizlik masalalari advokatlik faoliyatini raqamlashtirish jarayonida alohida e'tibor talab qiladigan sohaga aylangan. Barcha tahlil qilingan mamlakatlar ushbu masalaga jiddiy yondashmoqda va qat'iy standartlar joriy qilmoqda.

To'rtinchidan, davlat organlari tomonidan yuridik sektorning raqamli transformatsiyasiga qo'llab-quvvat ko'rsatish muhim omil hisoblanadi. Hukumat darajasida qabul qilingan dasturlar va investitsiyalar bu jarayonni tezlashtirish va samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Xulosa qilib aytganda, dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, advokatlik faoliyatini muvaffaqiyatli raqamlashtirish uchun texnologik innovatsiyalar, davlat qo'llab-quvvati, kadrlar tayyorlash va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash kabi omillarning kompleks yondashuvi zarur. Tahlil qilingan mamlakatlar modellaridan olingan darslar boshqa davlatlar uchun o'z raqamlashtirish strategiyalarini ishlab chiqishda qimmatli tajriba hisoblanadi.